

RONALD REYGAN TASHQI SIYOSATIDA SOVET-AMERIKA MUNOSABATLARI. “MUZOKARALAR DAVRI” (1985-1988 yy.).

Boltaeva Farida

Mutaxxassislik: Tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha) 2-bosqich

Annotatsiya: Ushbu maqolada AQSH – SSSR munosabatlarida keskinlikning yumshashi va Ronald Reygan ma'muriyatining Sovet Ittifoqiga nisbatan o'z pozitsiyasini o'zgartirishi masalalariga alohida to'xtalib o'tiladi. Maqolada 1985-1988 yillarda ikki davlat o'rtasidagi tashqi siyosiy masalalarni iliqlashtirishga xizmat qilgan uchrashuvlar tarixi va taqdiri borasida so'z yuritiladi.

Bugungi kunda keng qo'llanilayotgan mintaqaviy ziddiyatlar biz ko'rib o'tayotgan davrdagi Amerika tashqi siyosatida yangilik emas edi. 1947-1949 yillarda Filippindagi fuqarolar urushi, 1950-53 yillarda Koreya urushi davridayoq Qo'shma Shtatlar turli mintaqaviy ziddiyatli voqeliklarga faol aralasha boshladi. Aytish mumkinki, Ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSH tashqi siyosati xalqaro munosabatlarga o'z ta'sirini o'tkazish darajasiga ega kuch bo'la oldi. Shu jumladan, o'tgan asrning 80 - yillarida, Ronald Reygan prezidentligi davrida Qo'shma Shtatlar “global aralashuv” dasturini hayotga tadbiq qildi. Buning natijasida Qo'shma Shtatlar harbiy kuchlari rivojlanayotgan davlatlar ishlariga aralashish taktikasini qo'llay boshladi. Amalda mintaqaviy ziddiyatlarga aralashish siyosatini ishlab chiqish va hayotga tadbiq qilish jarayonida Reygan ma'muriyati bu holatning, eng avvalo, Sovet-Amerika munosabatlariga bog'liq ekanligini yashirmasdi ham. Prezident Reygan, davlat kotibi A.Xeyg, mudofaa vaziri K.Uaynberger va boshqa rasmiy shaxslarning dastlabki chiqishlarida Sovet Ittifoqiga zarba berib, Amerika qudratini ko'rsatish hamda AQSHning shu xildagi ziddiyatlarga aralashishi va ularda g'alaba qozona olishini isbotlash oshkora ravishda ko'rsatib berildi. Uzoq davr mobaynida ikki jahoniy tizim o'rtasidagi kurash dunyo tashqi siyosiy maydonida markaziy o'rinni egallab keldi. 1985 yilning 24 oktyabrida prezident Reyganning mintaqaviy ziddiyatlar borasida BMTda so'zlagan nutqidan so'ng ushbu masala Sovet-Amerika munosabatlarining ijobiy va salbiy xususiyatlarini ko'rsatib beruvchi asosiy omil bo'ldi [1;4].

XX asrning 80 - yillari birinchi yarmida Jorjtaun universiteti qoshidagi strategik va xalqaro tadqiqotlar markazida “bo'lajak ziddiyatlar” nomi ostida maxsus loyiha ishlab chiqilgan, unga ko'ra AQSH SSSRga qarshi kurashga jiddiy tayyorgarlik ko'rishi lozimligi uqtirilgan edi. [1; 27]. Reyganning harbiy doktrinasiga ko'ra, yuzaga keladigan ziddiyatli holatlarda Amerika qurolli kuchlari bevosita ishtirok etishi lozim edi. Ammo Reygan ma'muriyati tomonidan olib borilayotgan siyosat mintaqaviy ziddiyatli holatlarni keskinlashtirib yubordi. Aytish kerakki, Oq uy ayrim holatlarda o'z kuchiga ortiqcha baho berib, o'z tamoyillarining xato ekanligini ham tan olishga majbur bo'ldi. Birinchidan, Reygan ma'muriyatining qurollanish poygasida qo'llanilishi ko'zda tutilgan yangi tadbirlari AQSH byudjet resurslarining chegaralanganligi bois muvaffaqiyatsiz tugadi. Ikkinchidan, ma'muriyat olib borayotgan siyosat

ozodlikka chiqqan mamlakatlarning xalqaro muammolarni hal qilishda erkin harakatlana olishini rad etardi.[1;28].

Sovet davlatida 1985 yilda rahbarlikning M.S.Gorbachev qo'liga o'tishi va uning tashabbusi bilan boshlangan islohotlar tashqi siyosiy masalalarga ham daxldor edi. Garchi Bosh kotib bo'lguniga qadar unda tashqi siyosatga doir alohida tamoyil ishlab chiqilmagan bo'lsada, mutaxassislar ikki qutb-AQSH va SSSR munosabatlaridagi ziddiyatlarning susayishi va munosabatlarda iliqlashuvning yuzaga kelishiga umid bog'ladilar.

Nafaqat Amerika balki, SSSR tomoni ham bir-birini tushunishga asoslangan uchrashuv lozimligini yaxshi tushunardilar. Dastlab K.U. CHernenkoning dafn marosimida AQSH davlat kotibi J.Shuls va vitse - prezident J.Bush prezident Ronald Reyganning yangi Sovet rahbarini AQSHga chorlash taklifi bildirilgan xatni berishdi. 1985 yilning 24 martida M.S.Gorbachev javob maktubi yo'llab unda "o'tkazilajak uchrashuv chog'ida qandaydir yirik xujjatga imzo chekish shart emas"ligini bildirdi[2; 615].

Shunga muvofiq, 1985 yilning 19-21 noyabrida Jenevada ikki davlat rahbarining ilk rasmiy uchrashuvi bo'lib o'tdi. Har ikkala tomon ham bu uchrashuvga o'z maqsad va vazifalari bilan tashrif buyurdi.

Jeneva uchrashuvi chog'ida AQSHning SMT dasturi va uning 1972 yildagi SQCH shartnomasiga mos kelishi borasida bahs - munozaralar yuzaga keldi. Har ikkala tomon o'z qarashlarini zo'r berib himoya qildi. Jumladan, M.S.Gorbachev Sovet Ittifoqining SMT borasida o'zidan o'tib ketishiga yo'l qo'ymasligiga Reyganni ishontirmoqchi bo'ldi. Biroq amalda SSSR iqtisodiyoti va moddiy holati uning AQSH bilan bellasha olish darajasida emasligini yaqqol ko'rsatib turardi. Tabiiyki, bu Sovet davlati tomonidan tadqiqotchi M.F.Polinov fikricha, "Qo'rqqan oldin musht ko'tarar" qabilidagi harakat taktikasi edi. [3;58]. Gorbachev-Reygan pozitsiyalarining bir-biridan farqi shunda bo'ldiki, Sovet davlati rahbari agar AQSH SMTdan voz kechsa strategik qurollanishni 50 %ga qisqartirishga rozilik bildirdi. Reygan esa SMTdan voz kechmagan holda bunday qisqartirishni amalga oshirishga tayyor edi. Shu boisdan dastlabki vaqtlarda bu masalada yagona kelishuvga erishilmadi. Ikkinchi muammo - inson huquqlari bilan bog'liq masala doirasida yuzaga kelib, Amerika delegatsiyasi uchun u muzokaralarning markazida turar, mazkur masala tomonlarning yana ikki qutbda joylashuviga sabab bo'lardi. Garchi muhokama qilingan masalalar yuzasidan birdamlikka kelishilmagan bo'lsada, oxir-oqibat yagona qaror qabul qilindi: har ikkala tomon ham turli darajadagi muzokaralarni doimiy tashkillashtirish va faollashtirishga kelishib oldilar. Bu ikki davlat rahbarlari uchrashuvlari, AQSH davlat kotibi va SSSR tashqi ishlar vazirining doimiy uchrashuvlari, vazirliklar va hukumatlar rahbarlarining turli darajadagi uchrashuvlarini ifodalardi[4].

Bundan tashqari, davlat rahbarlari "Erda qurollanish poygasini to'xtatish, koinotda uning yuzaga kelish xavfini bartaraf etish, yadroviy qurollanishni qisqartirish hamda strategik stabillashuvni mustahkamlash" istagi borligini bildirdilar. Ayniqsa, har ikkala tomonning yadroviy qurollanishni 50 %ga qisqartirish va kimyoviy quroldan foydalanishni man qilish bo'yicha yagona to'xtamga kelishi muhim voqe'lik bo'ldi. Ular nazdida "yadroviy urush

muammolarni hal qilib bera olmaydi. Bu urushda hech kim g'olib bo'la olmaydi", degan fikrlari bir birini to'ldirdi. Aynan Jeneva uchrashuvi Sovet-Amerika munosabatlarida muhim burilish yasadi.

Ijobiy ahamiyatga ega bo'lsada, Jeneva uchrashuvidan so'ng ikki davlat munosabatlari birdan yaxshilanmadi. Reygan ma'muriyati tashviqot-targ'ibot ishlari, harbiy tazyiq, maxfiy iqtisodiy urush olib borishdan voz kechmadi. Bunday siyosatning yuzaga chiqishida Oq uy rahbari ta'biri bilan aytganda, kommunizmga qarshi kurashni davom ettirish zarurligi sabab qilib ko'rsatildi. Bundan tashqari, AQSH jahon neft bozorida Sovet Ittifoqiga qarshi kurashni kuchaytirdi. Jeneva uchrashuvidan so'ng 1985 yilning dekabrda OPEK mamlakatlari neft vazirlarining kengashi bo'lib, unda kvotalash tamoyilidan voz kechish haqida qaror qabul qilindi. SHundan so'ng kelishilgan baho tizimi amalda o'z ahamiyatini yo'qotdi[5; 36]. Mazkur qaror natijasida 1985 yilda 1 tonna neft 201 dollarni tashkil etgan bo'lsa, ikki haftadan so'ng, 1986 yilning yanvarida uning narxi 2 barobar arzonlashib, keyingi 3 oy davomida 100-110 dollarga baholandi. Martdagi kengashdan so'ng neftning narxi 70-80 dollarga tushib ketdi[5; 35-36].

Reygandan farqli ravishda M.S.Gorbachev Jeneva kelishuvini hayotga tadbiq qilishga ishtiyoq bildirib chiqdi. SHu maqsadda, 1986 yilning 15 yanvarida 2000 yilga qadar yadro qurollarini batamom yo'q qilish dasturi e'lon qilindi. Mazkur dastur keskin radikal va shu bilan birga xayoliy - utopik xususiyatda bo'lsada, jahon jamoatchiligi tomonidan qizg'in kutib olindi. Qurolsizlanish bo'yicha takliflar Sovet Ittifoqi KPning XXVII s'ezdida ham eshitildi. Biroq, Amerika tomoni SSSR bilan munosabatlarni ziddiyatlashtirish yo'liga o'tib olgan edi. S'ezd o'z ishini nihoyalaganligining keyingi kuni, 7 martda Oq uy Moskvaga BMT qoshidagi Sovet missiyasi sonini 40 %ga qisqartirish taklifi bilan chiqdi. Bunga qo'shimcha ravishda ikkita AQSH esmenosetslari Sovet Ittifoqining suv hududlarini buzib o'tib, Qora dengizga kiritildi va Qrim sohillaridan 6 mil uzoqlikda paydo bo'ldi[4].

Amerikalik ekspertlar SSSR iqtisodiy inqiroz tufayli AQSHdan ko'ra qurolsizlanishdan manfaatdor, degan xulosaga keldilar, buni Ronald Reygan o'z xotiralarida ham ta'kidlagan edi[2; 665].

Sovet rahbarining tashabbusi bilan 1986 yilning 11-12 oktyabrda Reykyavikda ikkinchi uchrashuv bo'lib o'tdi. Bu vaqtgacha Sovet tomoni ayrim yon berishlarga rozi edi. Mazkur uchrashuvga SSSR rahbari uch asosiy masalani qamrab olgan taklif bilan tashrif buyurdi: strategik qurollarni 50 %ga qisqartirish; Evropada o'rta uzoqlikdagi Sovet va Amerika raketalarini batamom yo'qotish; Vashingtonni SMT dasturidan voz kechishga ko'ndirish. O'z navbatida Reygan muzokaralar davomida SSSRning uchinchi dunyo mamlakatlari borasida yuritayotgan siyosati, xususan, Afg'oniston masalasi hamda Sovet Ittifoqida inson huquqlariga qay darajada amal qilinishi bilan qiziqdi [6; 80-81].

Uchrashuv davomida Reygan M.S.Gorbachev tomonidan bildirilgan takliflarga o'z roziligini bildirdi. Kelishuvga ko'ra og'ir MBR-SS-18 rusumli raketani 308 tadan 154 taga kamaytirishga rozilik bildirildi. Bu AQSH uchun

ayni muddao edi. Chunki ularda bunday raketalar yo‘q edi. 12 oktyabr kuni ikkala davlat rahbari 10 yil davomida yadroviy qurollarni to‘la-to‘kis yo‘q qilish borasida shartlashib oldilar. AQSH hukmron doiralarining aksariyati Ronald Reyganning bunday qaroridan hayratda edilar. Garchi yadroviy qurollar borasida aniq to‘xtamga kelingan bo‘lsada, AQSH tomoni SMTni rivojlantirish dasturidan voz kecha olmasdi. Bu esa 1972 yildagi shartnoma shartlariga mos kelmasdi. Amerika tomoni SMTning rivojlantirilishi AQSH qo‘lidagi kosmik qurol bo‘lib, kelajakda bu qurol yoramida Sovet ballistik raketalariga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borish mumkinligini anglardi. Garchi yadroviy qurollardan voz kechish masalasi hal qilingan bo‘lsada, Reyganning SMT dasturidan voz kechishga rozi bo‘lmasligi imzo qo‘yilgan barcha shartnomalarning o‘z kuchini yo‘qotganligini ifodalardi. Strategik qurollanish bilan bir vaqtda Reykyavik uchrashuvida gumanitar muammolar, shu jumladan, inson huquqlari masalasi ham muhokama qilindi. Sovet tomoni boshqa muammolarni ijobiy hal qilish yo‘lida ushbu masalaning ham ijobiy yakun topishidan manfaatdor edi.

Garchi Reykyavik uchrashuvi amalda ko‘zga ko‘rinarli natija bermagan bo‘lsada, bu jahon afkor ommasi nikohida katta voqelik sifatida baholandi.

1987 yilning aprelida AQSH davlat kotibi J.SHulsning Moskvaga rasmiy tashrifi chog‘ida o‘rta uzoqlikdagi raketalarni yo‘q qilish masalasi ko‘rib chiqildi. Sovet tomoni SS-4, SS-5 va SS-20 rusumdagi ballistik raketalardan voz kechishga tayyor ekanligini bildirdi, amerikaliklardan “Pershing-2” va erdan uchiriladigan qanotli raketalardan voz kechish taklifi kiritildi. O‘z navbatida Shuls 400 km uzoqlikka ucha oladigan “OK” (SS-23) yuqori tezlikdagi raketasini yo‘q qilishni E.A.Shevarnadzedan so‘radi, Sovet Ittifoqi bu taklifga o‘z roziligini bildirdi[4].

1987 yilning iyulida G‘arbiy Germaniyaga tegishli, biroq, yadroviy asosi AQSHniki bo‘lgan 72 ta (Pershing-1A) raketalarini yo‘q qilish bo‘yicha Sovet rahbariyati kiritgan taklifga GFR kansleri Gelmut Kol o‘z roziligini bildirdi. Shu yilning 7-9 dekabr kunlari Vashingtondagi navbatdagi uchrashuv chog‘ida ikki davlat rahbari o‘rta va qisqa masofadagi raketalarni yo‘q qilish haqidagi shartnomaga imzo chekdilar. Shunga muvofiq, 3 yil ichida SSSR 826 ta o‘rta masofadagi raketani, AQSH esa 689 ta qurolni, qisqa masofaga ucha oladigan raketalarni 926/170 nisbatda yo‘q qilinishi belgilandi. Shuningdek, nafaqat raketalar, balki tajriba namunalari va barcha ilmiy texnik hujjatlar ham yo‘q qilinardi, bunday raketalarni ishlab chiqarish ta‘qiqlanardi. Amerikaliklarning “Pershing-2”, “Pershing -1A” va qanotli raketalari GFR, Buyuk Britaniya, Italiya, Belgiya, Niderlandiyadan, Sovet raketalari esa GDR va CHSSR hududlaridan chiqarilardi[4].

Ronald Reyganning Sovet Ittifoqiga javob tashrifi 1988 yilning 29 mayidan 2 iyunigacha bo‘lib o‘tdi. Moskva uchrashuvi chog‘ida ham yuqorida ko‘rsatilgan muammolar ikki davlat rahbarining diqqat markazida bo‘ldi. Biroq birorta yirik bitimga imzo chekilmadi. 1985-1988 yillardagi Sovet – Amerika munosabatlari tubdan o‘zgardi: oshkora ziddiyatlar kelishuvlar siyosatiga almashdi. Yadroviy qurollar tarqatishni bekor qilish masalasi bilan bir vaqtda ikki tomon ayrim mintaqaviy muammolarni ham birgalikda hal qilishga

muvaffaq bo'ldilar. Jumladan, 1988 yilning 14 aprelida Jenevada AQSH davlat kotibi J.Shuls va SSSR tashqi ishlar vaziri E.A.Shevardnadze Afg'on muammosi bo'yicha yagona bitimga imzo chekdilar. SSSR va AQSH o'rtasidagi ijobiy tamoyillar aks etgan munosabatlar Reygan ma'muriyatidan so'ng Oq uy rahbarligini olgan J.Bush prezidentligi davrida ham davom ettirildi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. США и региональные (80-е годы). Отв. Ред. В.А.Кременюк. М., «Наука»,1990.
2. Рейган Р Жизнь по американски. М.,1992.
3. Ахромеев С.Ф.,Кореинко Г.М. Глазами маршала и дипломата. Критический взгляд на внешнюю политику СССР до и после 1985 года. М., 1992.
4. Польшов М.Ф. Советско-американские отношения во внешней политике М.С.Горбачёва.1985-1988гг.//Труды Исторического факультета Санкт-Петербургского университета Выпуск №14/2013//<http://cyberleninka.ru>
5. Экономическое положение капиталистических и развивающихся стран. Обзор за 1985 год и начало 1986 года.Приложение к журналу «Мировая экономика и международные отношения».М.,1986.
6. Беседы М.С.Горбачева с Р.Рейганом в Рейкьявике 11-12 октября 1986 г. Первая встреча//Мировая Экономика и международные отношения.1993.№4.

Ilmiy rahbar:

M.R.Raxmatullaev